uchragan. Eng keng tarqalgan usul ijtimoiy munosabatlardan chetlashtirsh koʻrinishida uchraydi. Shu sababdan Sharqda doimo amoralistik muammolarning oldini olish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Gʻarbda ham xuddi shunday insonlar axloqiy madaniyatini yuksaltirish, gʻayriaxloqiy (amoralistik) harakatlardan tiyilish, bunda tarbiya mezonlari barcha faylasuf-olimlar ilmiy merosida oʻz aksini topgan. Gʻarbning buyuk faylasufi Aflotun insonlardagi mavjud axloqiy fazilatlarni tugʻma deb hisoblaydi va tarbiya orqali ularni rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Agar tarbiya notoʻgʻri boʻlsa, yoshlardagi axloqiy fazilatlarning oʻrniga amoralistik illatlar paydo boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Г.Т.Маҳмудова, М.М.Исҳоқов ва бошқалар. Зардуштийлик хрестоматияси. Тошкент, "Mumtoz soʻz", 2017. 218-бет.

(2). Маҳмудова Г.Т. "Авеста" ва зардуштийлик онтологиясининг диний-фалсафий моҳияти. «Новости образования: исследование в XXI веке». Международный научный журнал, № 5 (100), часть 1, декабрь, 2022, с. 131.

(3). "Авесто" (Асқар Маҳкам таржимаси). Тошкент, "Гулистон", 1991, 206-бет.

(4). М.Умарзода. "Ависто" сирлари. "Жаҳон адабиети", 1997, 197-бет.

(5). Шермухаммедова Н. Фалсафа. Тошкент, 2009, 47 бет.

(6). Комилов Р.Р. (2020). Ислом динининг ўзбек халқи никоҳ муносабатлари ахлоқий-эстетик моҳиятида намоён бўлиши. Of socio-cultural environment, 41.

(7). Комилов Р.Р. (2020). Ўзбек халқи никоҳ муносабатлари генезисининг ахлоқий-эстетик ривожланиш хусусиятлари. Интернаука, 15(144, часть 2), 95.

(8). Komilov R.R. (2018). The aesthetec and moral sides of the family and wedding ceremonies. In international scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy (pp. 10–14).

(9). Komilov R.R. (2017). The aesthetic significance of the uzbek nation's wedding ceremonies evolution. In practice of communicative behavior in social and humanitarian researches (pp. 47–50).

(10). Komilov, R.R. (2017). Aesthetic component of wedding ceremonies of the uzbek people. Theoretical & Applied Science, (4), p. 87–89.

Ergashev Humoyun Samad oʻgʻli (OʻzMU tayanch doktoranti; E-mail:ergashevhumoyun@gmail.com)

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MA'NAVIY DUNYOQARASHIDAGI OʻZGARISHLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallashuv jarayonining yoshlar ma'naviy dunyoqarashi, qadriyatlari va axloqiy pozitsiyalariga koʻrsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Globallashuv nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki madaniy-ma'naviy maydonda ham chuqur oʻzgarishlarga sabab boʻlayotgani, ayniqsa, yosh avlod ongida gʻarbona stereotiplar, individualizm va iste'molchilik ruhiyati kuchayib borayotgani koʻrsatib oʻtiladi. Tadqiqotda milliy ma'naviyatni saqlab qolish, madaniy identitetni mustahkamlash, yoshlarni tanqidiy fikrlashga, axborot tanlash madaniyatiga oʻrgatish kabi masalalar yoritiladi.*

Kalit soʻzlar*: globallashuv, yoshlar, ma'naviyat, dunyoqarash, madaniy identitet, axborot maydoni, ma'naviy immunitet.*

ИЗМЕНЕНИЯ В ДУХОВНОМ МИРОВОЗЗРЕНИИ МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние процессов глобализации на духовный мир молодежи, их ценностные ориентиры и нравственные позиции. Показано, что глобализация вызывает глубокие изменения не только в экономической и политической, но и в культурно-духовной сферах, особенно в сознании молодежи, где усиливаются западные стереотипы, индивидуализм и потребительские настроения. В исследовании рассматриваются вопросы сохранения национальной духовности, укрепления культурной идентичности, формирования у молодежи критического мышления и культуры выбора информации.*

Ключевые слова*: глобализация, молодежь, духовность, мировоззрение, культурная идентичность, информационное пространство, духовный иммунитет.*

CHANGES IN THE SPIRITUAL WORLDVIEW OF YOUTH IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

Annotation. *This article analyzes the impact of globalization on the spiritual worldview, values, and moral positions of youth. It highlights that globalization leads to profound changes not only in the economic and political spheres but also in the cultural and spiritual domains, particularly by strengthening Western stereotypes, individualism, and consumerist attitudes in the minds of young people. The study addresses*

issues such as preserving national spirituality, strengthening cultural identity, developing critical thinking among youth, and cultivating information literacy.

***Keywords**: globalization, youth, spirituality, worldview, cultural identity, information space, spiritual immunity.*

Kirish. Mamlakatimizda istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Yoshlarni ma'nan yetuk, jismonan barkamol, axloqan pok, yuksak intellektual, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini qadrlovchi, buyuk ajdodlarimizni o'ziga ibrat deb biluvchi, elim-yurtim deb yonuvchi, shijoatli, tadbirkor, adolatli qaror chiqara oladigan, tevarak-atrofidagi voqea-hodisalar haqida mustaqil fikrlaydigan, o'z haq-huquqini biladigan vatanparvar inson sifatida tarbiyalash eng dolzarb vazifalarimizdandir.

XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida yuzaga kelgan global vaziyat zamonaviy geosiyosiy muhitning murakkab va ziddiyatli tus olganligi bilan ajralib turadi. Davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlar tobora murakkablashib, butun dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari chuqur va tez sur'atlar bilan kengayib bormoqda. Bu esa insoniyat hayotiga, uning madaniy-ma'naviy hayot tarziga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, globallashuvning mafkuraviy oqibatlari, yosh avlod dunyoqarashiga ta'sir etuvchi tashqi omillar ta'lim tizimidan yangicha yondashuvni, strategik islohotlarni talab qilmoqda. Bugungi kunda pedagoglarning moddiy va ma'naviy holatini yaxshilash, ta'limda sifat o'sishini ta'minlash maqsadida ilg'or xorijiy tajriba, innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda. Shuningdek, ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi hamda uzluksizligi tamoyili asosida milliy tarbiya tizimini yangilash dolzarb masalaga aylangan.

Ta'lim – bilim va tafakkurga asoslangan, raqobatbardosh shaxsni shakllantirish vositasi bo'lsa, tarbiya irodali, vatanparvar, fidoyi, ma'naviy barkamol avlodni kamol toptirishning strategik negizidir. Bu ikki soha o'zaro komplementar xarakterga ega bo'lib, ularni zamonaviy ilmiy-falsafiy konsepsiyalar asosida takomillashtirish O'zbekistonning kelajagini barpo etishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli yoshlar tarbiyasi va ta'limini yangi milliy g'oya asosida, ilmiy-texnologik hamda zamonaviy-ma'naviy tamoyillar uyg'unligida isloh etish zaruriyati tobora kuchayib bormoqda. Bu esa davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

XXI asrning ezguliklar asri sifatida kishilik tarixida qolishi ko'p jihatdan bugungi kunda maktablar bag'rida ta'lim-tarbiya olayotgan yosh avlodning ma'naviy qiyofasiga bog'liqdir. A'zolari ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lgan jamiyatgina taraqqiyot sari talpinadi. Bunday jamiyatda shaxsning aqliy-intellektual salohiyati va ma'naviy- axloqiy fazilatlari farovon hayotni ta'minlash ustuvor bo'ladi. Xuddi mana shunday bilimdon va ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishdek ulkan maqsad uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy globallashuv sharoiti ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yosh avlod bu jarayonning bevosita subyektlaridan biri sifatida alohida e'tiborni talab qiladi. Bu holat, bir tomondan, tabiiy jarayon bo'lib, axborot texnologiyalarining jadal taraqqiyoti tufayli talaba-yoshlar zamonaviy kommunikatsion muhit orqali global axborot makonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Biroq bu jarayonning muhim jihatlaridan biri shundaki, har bir individning ma'naviy-madaniy immuniteti, qadriyatlarga nisbatan ongli yondashuvi va tanqidiy fikrlash qobiliyati turlicha shakllanmoqda.

Milliy qadriyatlarimizga zid g'oya va xatti-harakatlarning yoshlar ongiga singdirilishi bu zamonaviy davrning ijtimoiy-falsafiy muammolaridan biridir. Mazkur xavflarning oldini olishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, fikr almashuvlar, muntazam uchrashuvlar va suhbatlar muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Quyida ushbu jarayonni murakkablashtirayotgan asosiy omillar falsafiy tahlilga tortiladi:

1. Globallashuvning ma'naviy muhitga bo'lgan ta'siri. Bugungi globallashuv – bu faqat iqtisodiy yoki siyosiy integratsiya emas, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan bosim shaklida ham namoyon bo'lmoqda.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mafkuraviy qurolga aylanishi. Zamonaviy informatsion vositalar bu shunchaki texnik vosita emas, balki mafkuraviy va ideologik ta'sir o'tkazuvchi kuchli vositadir.

3. Globallashuvning ijobiy va salbiy dialektikasi. Zamonaviy siyosiy kuchlar globallashuvni o'z strategik manfaatlari yo'lida mafkuraviy vositaga aylantirgan.

4. Yoshlarning ma'naviy barqarorligini ta'minlash zarurati. G'oyaviy qarama-qarshiliklar kuchaygan hozirgi davrda yoshlarning ongini ma'rifatga asoslangan tafakkur asosida shakllantirish muhim vazifadir.

5. Fuqarolik jamiyati institutlarining roli. Oila, mahalla, ta'lim-tarbiya tizimi hamda ommaviy axborot vositalari bugungi ijtimoiy-falsafiy muhitda g'oyaviy-mafkuraviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institutsional mexanizmlardir.

Mahalla qo'mitalari, yoshlar tashkilotlari, kasaba uyushmalari, ijodkorlar va maorif xodimlari kabilarning faoliyatlarida milliy g'oyaning targ'iboti va tashviqoti orqali ham yoshlar ma'naviyatini shakllanishida yetakchi o'rin egallaydi. Ma'naviyatni rivojlanishi jamiyatning barcha a'zolariga, jumladan, yoshlarga ham taalluqlidir. Ularning barcha jabhadagi jarayonlarda va jamoat ishlarida faol ishtirokisiz milliy istiqlol g'oyasining hayotga tatbiq etib bo'lmaydi. Bunda yoshlarning madaniyati, muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Milliy-ma'naviy qadriyatlar yoshlik ongi va tafakkurining yadro komponentidir. Agar yoshlar ongida bu qadriyatlar chuqur o'rnatilmasa, ular bo'shlig'ini begona g'oya va qarashlar egallashi muqarrar. Bu esa, o'z navbatida, ma'naviy indifferentlik, ya'ni, milliy merosga bepisandlik, tarixiy xotiraga loqaydlik va madaniy o'zlikdan yiroqlashishga olib keladi. Shunday salbiy jarayonlarning oldini olish uchun, avvalo, yoshlarning ongi va qalbida bu zaminni dunyoga tanitgan buyuk mutafakkirlar, olimlar, sarkardalar, davlat arboblari, shuningdek, ilmiy va badiiy meros yaratgan ajdodlar haqida chuqur tushuncha hosil qilish lozim.

O'zbekiston hududi Sharq sivilizatsiyasining beshiklaridan biri sifatida insoniyat tafakkurining beqiyos yutuqlarini bergan. Bu yurt tarixida tosh bitiklardan tortib, qo'lyozma manbalar, xalq og'zaki ijodi namunalari va boshqa ko'plab ma'naviy boyliklar saqlanib qolgan. Bu boy meros tarixiy xotira, ilmiy tafakkur va san'atga asoslangan milliy o'zlikning konstituentidir. Uni yoshlar ongiga singdirish ma'naviy barqarorlikning eng muhim shartidir.

Bugungi davrning haqiqatiga ko'ra, intelektual salohiyat va ma'naviy kapitalga ega bo'lgan jamiyatlargina o'z istiqbolini ta'minlay oladi. Shu sababli yosh avlodni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga, umuminsoniy taraqqiyotning yutuqlari va zamonaviy fan-texnika bilimlarini mukammal o'zlashtirishga imkon beruvchi zamonaviy shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Jamiyat hayotining modernizatsiyalashuvi sharoitida quyidagi strategik ma'naviy-mafkuraviy vazifalarni amalga oshirish zarur:

1. Yoshlarni islohotlar va yangilanish jarayonining faol subyektiga aylantirish.

2. Jamiyatdagi xilma-xil fikr va ijtimoiy qatlamlar manfaatini uyg'unlashtiruvchi g'oyaviy platformani shakllantirish.

3. Islom dinining gumanistik mohiyatini jamiyat ongiga chuqur singdirish.

4. Milliy axborot makonini shakllantirish. Bu yo'nalishda raqobatbardosh va zamonaviy teleko'rsatuvlar, badiiy va hujjatli filmlar, seriallar hamda yoshlar uchun mos axborot resurslari tayyorlash orqali milliy g'oyalarni ommaga singdirish zarur.

5. Ilmiy va innovatsion yondashuvni targ'ib qilish. Jamiyatda ma'naviyatni takomillashtirishning imkoniyatlari va istiqbollariga doir ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash, qonun ustuvorligini ta'minlash va normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash orqali ma'naviy muvozanatga erishiladi.

Ma'naviy meros zamonlar o'tishi bilan o'z qadrini yo'qotmaydi, balki sifat jihatdan yangi ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy meros kishilar ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyg'usiga ta'sir etib, ular ongini boyitadi, axloq-odobini ezgulik sari yetaklaydi. XXI asrning mafkuraviy-ma'naviy manzarasi shunday xulosaga olib keladiki, zamonaviy davlatning barqarorligi, ijtimoiy salohiyati va sivilizatsion taraqqiyoti, avvalo, uning fuqarolarining intellektual saviyasi, ma'naviy pokligi hamda milliy g'oyani anglash darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Talaba-yoshlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga nisbatan ko'nikma va malaka shakllantiriladi. Endi bu bosqichda talabalar o'rtasida o'zini-o'zi boshqarish tizimi joriy etiladi hamda ma'lum bir "ixtiyoriy-majburiy" usullardan xoli tarzda, o'zi xohlagan holda, o'zini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga yo'naltiradi. "Tengdoshdan–tengdoshga" tamoyili asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tashkil etiladi. Buning uchun har bir talabaning to'garaklarda, o'tkazilayotgan tadbirlarda, o'quv mashg'ulotida, sayohatlarda, munozara-debatlarda, seminar-treninglarda o'z o'rni va mas'ulyati borligini anglatish kerak bo'ladi. Ushbu bosqichda talabaning o'zining mustaqil dunyoqarashlari asosida tadbirlar tashkil etishiga, unda ishtirok etishiga, yetarli rag'bat olishiga, keyingi faoliyatidagi amaliy ahamiyatiga, tajribasiga keng imkoniyat yaratiladi.

Mutaxassislik fanlari tanlagan kasblari orqali tarbiyaviy jarayonlar singdirib boriladi. Bunda yuqori tajribaga ega malakali mutaxassislarga talabalar biriktiriladi va ularning ish uslubi o'rgatiladi. Ularning ish

uslubini o‘rganish bilan birga, ulardagi axloqiy jihatlar, eng yaxshi qadriyatlar singdirib boriladi. Buning natijasida talaba o‘zida yetuk mutaxassislik pozitsiyasi bilan birga, ma’naviy yetuklik sifatlarini mujassamlashtirib boradi. Shuningdek, amaliyotlarni va amaliy mashg‘ulotlarni tegishli muassasalarda o‘tash bilan yoshlarning ma’naviyati shakllantiriladi. Endi talabalarning o‘zlarini mehnatga jalb etiladi (o‘zi dars o‘tadi, o‘zi yoshlarni tarbiyalaydi va boshqa muassasalarda o‘zi faoliyat olib borishiga yo‘naltiriladi). Ular, fan sohasida yuqori natijalarga erishgan olimlar bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali ijodiy faoliyatga yo‘naltiriladi.

Xulosa va takliflar. Mavzunining ustida ishlash jarayonida quyidagicha ilmiy-nazariy fikr-mulohazalar tahlil qilib o‘rganildi. Mafkuraviy tahdidlarning hozirgi vaqtda nihoyatda keng qamrovli tus olganligi va jamiyatning barcha sohalari: siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ta’lim-tarbiyaviy, iqtisodiy sohalariga mafkuraviy immunitet g‘oyasining mantiqiy rivoji sifatida shakllantirish vazifalari tabiiy ravishda kelib chiqmoqda. Chunki mafkuraviy immunitet jamiyat hayotining barcha jihatlarini bekam-ko‘st qamrab oladi. Mamlakatimiz xavfsizligini yanada mustahkamlash yo‘lida jamiyatimiz imkoniyatlarini to‘liq safarbar qilish uchun keng sharoitlar yaratadi. Ta’lim-tarbiya, mahrifat, madaniyat, siyosiy ong va siyosiy madaniyat kabi jamiyat taraqqyotining yetakchi omillari mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonida asosiy o‘zak vazifasini bajaradi.

Tahdid har qanday muammoning rivojlanib, ziddiyat va mojaroga aylanib, yanada keskinlashib, umuminsoniy taraqqiyotga g‘ov bo‘luvchi salbiy fenomendir. Tahdid kishilik jamiyatining ilk davridan boshlab insoniyatga doimiy xavf sifatida jamiyatning barqaror rivojiga to‘sqinlik qilishga intilib, jamiyat a’zolarini hushyorlikka chorlab kelgan.

Globallashuv ziddiyatlari hosilasi sifatida ichki tahdidlarga nisbatan tashqi tahdidlar ehtimoli, soni hamda ko‘lami kengayib ketayotganligi hamda mavjud tashqi tahdidlarning ichki tahdidlarnida vujudga keltirish ehtimolining ustunligi Vatan sarhadlarini mustahkamlash, avaylash va asrashdek mashuliyatli vazifasini har birimizning zimmamizga yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 1-iyul.

(2). Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. T., “O‘zbekiston”, 2007, 10-bet.

(3). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., O‘zbekiston, 2021, 375-bet.

(4). Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.URL–http://uza.uz/oz/politics/onun-ustuvorligi-va-insonmanfaatlarini-taminlashyurt-tara-07-12-2016

(5). https://www.mana.uz/quote/2102

Qodirov Fazliddin Yuldoshovich (QarDU “Falsafa va sotsiologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD); Fazliddin3210@umail.uz)

TARBIYA SHAKLLARINING FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantiruvchi tarbiya shakllari tahlil qilingan. Jumladan, shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantiruvchi tarbiya shakllarining tarkibiy qismlari va muhim aspektlariga aniqlik kiritilgan. Xususan, ijtimoiy tarbiyaning siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, mehnat va ekologik shakllari atroflicha o‘rganilib, mazkur tarkibiy elementlar kompleks tarzda shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi ko’rsatib berilgan. Shuningdek, jamiyat a’zolarini fuqaro sifatida kamol toptirish, ularni jamiyatni isloh qilish hamda rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritish bilan bog‘liq vazifalari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarbiya shakllari, shaxs fuqarolik madaniyati, ijtimoiy tarbiya, siyosiy tarbiya, huquqiy tarbiya, axloqiy tarbiya, diniy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiya, ekologik tarbiya, Vatan manfaati.*

Кадыров Фазлиддин Юлдошович (старший преподаватель кафедры философии и социологии КарГУ (PhD)

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ФОРМ В ФОРМИРОВАНИИ ГРАЖДАНСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В статье анализируются формы воспитания, формирующие гражданскую культуру личности. В частности, раскрываются компоненты и важные аспекты образовательных форм, формирующих гражданскую культуру личности. В частности, подробно исследуются политические, правовые, нравственные, религиозные, эстетические, трудовые, экологические фор-*